

INGLIZ TILI O'RGANISHDA YANGI SO'ZLARNI YODLASH METODIKALARI

Valisherova Mohlaroy Sanjarbek qizi

O'zDJTU 1-kurs talabasi

Email : m.sanjarbekovnaa@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqolada o'quvchilarning ingliz tilini o'rganish davridagi eng qiyin jarayon, ya'ni yangi so'zlarni yodlashning samarali usullari haqida ma'lumot beriladi . Maqola til o'rganuvchilar uchun turli usullarni taqdim etadi, masalan, takrorlash, vizual vositalardan foydalanish , so'z oilasi bilan yodlash . Shuningdek, lug'at yodlashda turli yangi texnologiyalar va ilovalarning o'rni haqida ham ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *lug'at, metodika, yodlash , so'z oilasi , takrorlash , zamonaviy , turkumlash.*

Annotation: *This article provides information on effective methods of memorizing new words, which is the most difficult process for students in learning English. The article presents various methods for language learners, for example, repetition, use of visual aids memorizing with word families. Also, the information is given about the role of various new technologies and applications in vocabulary memorization.*

Key words: *Vocabularies, methods, learn by heart, word family, repeat, categorize.*

Hozirgi axborot texnologiyalari ommalashib, dunyo zamonaviylashib borayotgan davrda yangi tillarni o'rganishga talab ortib bormoqda. Shu bilan birga, yoshlar hatto kattlar ham ingliz tilini o'rganishga harakat qilmoqda. Ingliz tilini o'rganishda eng asosiy jarayonlardan biri ingliz tili grammatikasini o'rganish va yangi so'zlarni yod olish. Ammo hozirgi kunda ko'plab til o'rganuvchilari yangi so'zlarni yodlashda muammolarga duch kelishmoqda hamda so'z yodlash jarayonini zerikarli deb topishmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri qay usulda ya'ni qaysi metodika bilan yodlashni bilmaslikdir. Lekin yangi so'zlarni yodlashni bir necha usullari mavjud. Bular:

1.Kartochkalar: kartochkalarining bir tarafiga ingliz tilidagi so'z orqa tarafiga esa uning o'zbek tilidagi tarjimasini yozib yodlash eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda yodlab qolish osonroq amalga oshadi.

2.Kalit so'z usuli :bu usul talaffuz uslubi deb ham ataladi. Biror so'zni o'ylaymiz va u so'zni talaffuz qilinishiga e'tibor qaratib uni o'zimiz ma'no va talaffuz jihatdan yaqin bo'lgan so'zga bog'laymiz. Misol uchun "push" so'zini oladigan bo'lsak, bu " itarmoq " ma'nosini bildiradi, bu so'z o'zbek tilida "po'sh-po'sh " so'ziga talaffuz jihatidan

o'xshab ketadi va o'quvchi bu so'zni yodlash davrida aravakashning bozorda "po'sh-po'sh" deya aravani itarib ketayotganini vizual tasvir yaratib olishi mumkin.

3. So'z oilasi bilan yodlash: bu usulda so'zlarni yakka ozi emas balki ot, fe'l, sifat korinishlari bilan yodlanadi. Bu usulda bir harakat bilan bitta so'zni emas balki bir necha so'zlarni yodlashga erishiladi.

4. Turkumlarga ajratish: bu usul oldingi usulga o'xshab ketadi ammo undan farqli. Ingliz tilini endigini o'rganish davrida qo'llanadigan, ayniqsa, yosh bolalar uchun judayam foydali metoddir. Har bir so'zni turkumi bilan yodlanadi ya'ni mevalar turkumi, sabzavotlar turkumi, hayvonlar turkumi va shu kabilar.

5. Lug'at daftar tutish metodikasi: bu ham samarali usullardan biridir. Lekin lug'at daftar tushishni ham o'ziga yarasha usullarni mavjud. Agar o'quvchi faqat bir xil rangdagi ruchkadan foydalanib yozsa, bu juda zerikarli mashg'ulot tuyiladi. Biroq har xil rangdagi ruchkalardan foyalanish masalan, ingliz tilidagi so'zlarni qizil ruchka yordamida, o'zbek tilidagi so'zlarni esa qora ruchka yordamida yozilsa, bu mashg'ulotdan o'quvchi zavqlanadi.

6. Takrorlash: "Takrorlash- bilimlar onasidir" deyiladi. Inson o'rgangan, yodlagan narsasini takrorlab turmas ekan, bu narsa tezda yodidan kotariladi va so'z yodlashda ham eng asosiy usul tez-tez takrorlab turishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, so'z yodlash bu eng asosiy jarayonlardan biridir. Yangi so'zlarni yodlash matnlarni qiyinchiliksiz o'qish, ravon gapirish va boshqalarning fikrini oson tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada berilgan usullar yordamida oquvchilar yangi so'zlarni tez va oson yodlab olishlari mumkin. Yana, eng muhim narsalardan biri bu- yodlagan so'zlarni muloqotda tez-tez foydalanib turish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Holtermann.C.,Schulten.K. "14 ways to learn vocabulary and explore language." The New York Times. 2021.

2. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>

3. Isakulova, B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>

4. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>

- 
- 
5. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>,
<https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
 6. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781>
<http://multidisciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>
 7. Kandybovich S. “Ten ways to learn new words as a language learner”. 2017
 8. Rahmonov.Sh., Sattibaev.I. “So’z yodlash sirlari” Toshkent. Istiqlol nuri nashriyoti. 2015
 9. <https://prep.uz/news/umumiy/so-z-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari>
 10. <https://global-edu.uz/articles/qanday-qilib-sozlarni-oston-eslab-qolish-mumkin/>

